

***Jahonov Shohruh Shuhrat o'g'li,***

*Toshkent davlat yuridik universiteti*

*mustaqil izlanuvchisi*

Ma'lumki, inson, uning huquq va erkinliklari oliy qadriyat bo'lmish insonparvar demokratik huquqiy davlatning asosiy vazifasi tabiatan turlicha bo'lgan fuqarolar va jamoat birlashmalari (nodavlat notijorat tashkilotlar, partiyalar, OAV, uyushmalar, assotsiatsiyalar, tashabbuskor guruhlar va b.) inson bilan davlat o'rtasida aloqani amalga oshiruvchi, davlatning hokimiyatni suiste'mol qilishiga yo'l qo'ymaydigan fuqarolik jamiyatining har tomonlama rivojlanishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratib berishdan iborat.

Dunyodagi ko'plab ilmiy tadqiqot institutlari va analitik markazlar tomonidan davlat va jamiyat munosabatlarida jamoatchilik nazoratini ta'minlash, uning ijtimoiy-siyosiy ahamiyatini o'rganishga qaratilgan tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, AQShdagi J.Kin nomidagi demokratiyani o'rganish Markazi, Germaniyadagi Korporativ fuqarolik jamiyati Markazi, Finlandiyadagi Jamoatchilik nazoratini o'rganish Markazi va boshqa tadqiqot markazlarida jamoatchilik nazorati public advocacy (xalq himoyasi), public watch (jamoatchilik nazorati) yo'nalishida o'rganilmoqda. Ularda jamoatchilik nazoratini fuqarolar, fuqarolik jamiyati institutlari, OAV orqali ta'minlanish mexanizmlari, samaradorlik mezonlari va istiqbollari tadqiq qilinmoqda.

Davlat hokimiyati organlari faoliyati yuzasidan kuchli jamoatchilik nazoratining mavjudligi – fuqarolik jamiyatini barpo etishning eng muhim shartlaridan biridir. Binobarin, fuqarolarning faolligi, ijtimoiy hodisalarga befarq bo'lmasligi hamda har bir davlat xizmatchisining o'z faoliyatini jamoatchilik nazorati ostida ekanligini chuqur his etib borishi fuqarolik jamiyatini shakllantirish jaraenida o'ta muhim ahamiyat kasb etadi.

Jamoatchilik nazoratiga doir konsepsiyalarning ilmiy-nazariy asoslari

XVIII-XX asrlardayoq shakllangan bo'lsada, ilmiy hamjamiyatning fuqarolik jamiyatining vujudga kelishi va uning hokimiyat institutlariga ta'sirini o'rganishga qiziqishi ancha oldin paydo bo'lgan. Bu borada fuqarolik jamiyati hamda uning nazorat funksiyalari borasidagi talqinlar hamda mulohazalar muhim ilmiy-amaliy qiymatga ega. Antik davrdayoq Aflotunning "Davlat" asarida davlat qurilishining turli shakllari nuqtai nazaridan xususiylik va ijtimoiylik nisbatlarini ko'rib chiqilgani, Arastuning davlat va jamiyat munosabatlariga doir qarashlari masalaning uzoq tarixga ega ekanini ko'rsatadi.

Jamoatchilik nazorati borasidagi dastlabki tasavvurlar ilk davlatchilikning vujudga kelishi va ularning jamiyat bilan munosabatlariga borib taqaladi. Jumladan, Forobiyning fozil jamiyat haqidagi konsepsiyasida fuqarolarning davlat hokimiyati foliyatidagi ishtiroki va nazoratiga doir salmoqli fikrlar uchraydi. Jamoatchilik nazorati siyosiy tartibot doirasida Sh.L. Monteskye, T. Gobbs, J. Lokk kabi mutafakkirlar tomonidan ilk bor ilmiy asosda izohlangan bo'lib, hokimiyat fuqarolar tomonidan nazorat qilinishidagi meyorlarga e'tibor qaratdilar.

Uslublari hamda u qanday holatlarda namoyon bo'lishi to'g'risidagi nazariy va amaliy masalalarni tadqiq etish olimlar oldida turgan dolzarb masalalardan biridir. Binobarin, ushbu masalalar mamlakatimiz va xorijlik olimlar tomonidan tadqiqot obyektini sifatida muayyan darajada o'rganilib kelinmoqda[2]. Shuni ta'kidlash joizki, jamiyatda ushbu nazoratni maxsus amalga oshirish vazifasi yuklatilgan ma'lum bir tizim, organlar, resurslar mavjud emasligi sababli, jamoatchilik nazorati instituti nisbatan mavhum tushuncha bo'lib ko'rinadi, lekin ijtimoiy voqelikda ushbu institutning roli hamda ahamiyati fuqarolik jamiyati institutlari faoliyati orqali namoèn bo'ladi.

Ilmiy adabiètlarda jamoatchilik nazorati instituti turli ta'riflar orqali talqin etiladi. Xususan, bu borada ilmiy tadqiqotlar olib borgan rossiyalik olim A.V.Sokolov davlat hokimiyati organlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirishga – demokratiyaning asosiy belgisi hamda davlat hokimiyat organlari faoliyati haqida umumiy xabardorlik qilish jaraèni, deb qaraydi[3]. B.I.Ismoilovning fikricha, jamoatchilik nazorati deganda, fuqarolik jamiyati

institutlarining O'zbekiston Respublikasi fuqarolari va ularning birlashmalari, davlat hokimiyati organlari va boshqaruvi ustidan nazorati tushuniladi[4].

T.Do'stjonov va S.Hasanovlar jamoat nazoratini – fuqarolik jamiyatini shakllantirish va uni to'g'ri tashkil etishning asosiy institutlardan biri ekanligini ta'kidlab, unga birmuncha kengroq ta'rif beradilar, ya'ni, “jamoatchilik nazorati – bu davlat hokimiyati va boshqaruv organlari hamda nodavlat tashkilotlari faoliyati ustidan fuqarolar, ularning birlashmalari va o'zini o'zi boshqarish, fuqarolik jamiyatining boshqa tuzilmalari (institutlari), shuningdek, davlat va nodavlat organlari tarkibida tuzilgan jamoatchilik organlari tomonidan qonun doirasida olib boriladigan nazoratdir”[5].

Ularning fikricha, jamoatchilik nazorati jamiyatda ijtimoiy adolat barqaror topishi uchun shaxs, jamiyat va davlat aloqalarida muvozanat, tenglik, o'zaro mas'uliyat va javobgarlikka xizmat qiluvchi asosiy omil hisoblanadi. Mazkur institut insonning hukuq va erkinliklari nafaqat davlat tomonidan kafolatlanganligini, balki davlat organlari faoliyatida ularning ustuvor ahamiyatga egaligini ta'minlaydi va bunda jamoatchilik nazoratining mavjudligi siësiy hokimiyatning tom ma'noda xalq qo'lida bo'lishining ko'rsatkichi hisoblanadi[6].

Shu bilan birga, B.I.Ismoilov to'g'ri ta'kidlab o'tganidek, jamoatchilik nazorati, fuqarolik jamiyati institutlarining markaziy davlat hokimiyati organlari va mahalliy boshqaruv organlari bilan o'zaro ta'sirining eng muhim shakllaridan biri hisoblanadi.

A.V.Sokolovning fikricha, jamoatchilik nazoratining yuqorida ko'rsatib o'tilgan shakllari bo'yicha amalga oshirilishi, o'z navbatida muayyan sharoitlarning mavjud bo'lishini taqozo qiladi. Bular: axborot olish huquqining kafolatlanganligi; fuqarolik jamiyati institutlarining mavjudligi; davlat organlari faoliyatining demokratik tamoyillar asosida yuritilishi; mustaqil OAVning mavjudligi va boshqalar[7]. Darhaqiqat, ushbu omillar jamoatchilik tomonidan davlat hokimiyati organlari faoliyatini xolisona baholash imkonini tug'diradi. O'z o'rnida jamoatchilik nazoratini kimlar èki qanday tuzilmalar va subyektlar amalga oshirishi mumkin, degan haqli savol tug'iladi. Mavjud foydalanish o'rinliroq

bo'ladi: "Jamoatchilik nazorati – jamoat birlashmalari tomonidan davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining amaldagi qonunlarga mosligini aniqlash va baholash bo'yicha yuritadigan faoliyat".

Jamoatchilik nazorati fuqarolik jamiyati institutlarining shakllanishi va rivojlanishi bilan bog'liq tarzda rivojlanib boradi. Fuqarolik jamiyati rivojlanib borgan sari jamoatchilik nazorati uchun kengroq imkoniyatlar va istiqbollari paydo bo'ladi. Ikkinchi tomondan, jamoatchilik nazoratining rivojlanishi fuqarolik jamiyati institutlarining rivojlanishiga olib keladi. Rivojlangan va keng quloq yoygan jamoatchilik nazoratini fuqarolik jamiyatisiz tasavvur qilib bo'lmaganidek, fuqarolik jamiyatining rivojlanishini ham jamoatchilik nazoratisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Fuqarolik jamiyati jamoatchilik nazorati rivojlanishi uchun imkoniyatlar yaratishining sababi shundaki, tom ma'nodagi samarali, mustaqil va xolis jamoatchilik nazoratini iqtisodiy va siyosiy jihatdan erkin fuqarolar va ularning birlashmalarigina amalga oshirishi mumkin. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan tub ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar va modernizatsiyalash sharoitida jamoatchilik nazorati mazmunida ana shunday o'zgarishlar o'z ifodasini topadi.

Bu esa faoliyat subyekti bo'lgan har bir shaxs o'z zimmasiga muayyan majburiyatlarni olish bilan birga, boshqalardan, davlat hokimiyati organlaridan ularning zimmasidagi majburiyatlarni, vazifalarni bajarishlarini talab qilishi mumkinligini anglatadi.

### **Adabiyotlar**

1. Каримов И.А. Биз танлаган йўл – демократик таракқиёт ва маърифий дунё билан ҳамкорлик йўли. Т.11. – Тошкент: Ўзбекистон, 2003. –Б.28-29.
2. Лепехин В. Гражданское общество, гражданская позиция и СМИ // Роль прессы в формировании в России гражданского общества. –М., 1999. –178 с.;  
Исмоилов У. Жамоатчилик нazorати // Жамият ва Бошқарув.–Тошкент, 2002. –№4. –Б.74-75;
3. Т.Дўстжонов. С Ҳасанов. Ўзбекистон демократик тарққиёт йўлида. – Тошкент: Тошкент Молия институти, 2004. –Б.79.
4. Исмоилов Б.И. Давлат фаолияти устидан жамоатчилик нazorатини амалга

- оширишнинг амалий жиҳатлари / Ўзбекистонда фуқаролик жамияти институтларини шакллантириш масалалари: назария ва амалиёт // Илмий-амалий конференция материаллари. –Тошкент: ТДЮИ, 2007. – Б.46
5. Т.Дўстжонов. С Ҳасанов. Ўзбекистон демократик тарққиёт йўлида. – Тошкент: Тошкент Молия институти, 2004. –Б.79.
6. Т.Дўстжонов. С Ҳасанов. Ўзбекистон демократик тараққиёт йўлида. – Тошкент: Тошкент Молия институти, 2004. –Б.80.
7. Соколов А.В. Механизмы и принципы информирования о деятельности органов власти и управления // СМИ в информационном взаимодействии власти и общества. Материалы всероссийской
8. Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси (32,35,58 моддалар),